

**ONA TILI TA'LIMI JARAYONIDA FANLARARO INKORPORATSION
BOG'LIQLIKNI TA'MINLASH ORQALI DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISH
VA SO'Z BOYLIGINI O'STIRISHDA BADIY ASARLARDAN FOYDALANISH
OMILLARI**

N.O. Xudoyberdiyeva

BuxDPI o'qituvchisi

D.Y.Zokirova

D.G'aybullayeva

BuxDPI magistrantlari

Annotatsiya:

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarning so'z boyligi va nutqini o'stirish va rivojlantirishda pedagogik texnologiyalarning o'rni va dars jarayonida qo'llash usullari yoritilgan

Kalit so'zlar: Adabiy asar, metodika, asar tahlili, nutqiy qobiliyat, so'z boyligi, nutqiy qobiliyat, saviya, dunyoqarash.

Annotation:

This article describes the role of pedagogical technologies in the growth and development of the vocabulary and speech of elementary school students and the methods of using them in the course of the lesson.

Key words: Literary work, methodology, work analysis, speaking ability, vocabulary, speaking ability, level, worldview.

Аннотация:

В данной статье описывается роль педагогических технологий в росте и развитии словарного запаса и речи учащихся начальной школы и методы их использования в ходе урока.

Ключевые слова: Художественное произведение, методика, анализ произведения, говорение, словарный запас, говорение, уровень, мировоззрение.

Mamlakatimizning dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, fan-texnika va texnalogiyalarning rivojlanishi yosh avlodning o'zgaruvchan dunyoda raqobatbardosh bo'lishi fanlarni mukammal egallashni taqozo etadi, bu esa ta'lim tizimiga, jumladan, ona tilini

o'rgatish bo'yicha ham xalqaro tajriba va andozalarni joriy etish orqali ta'minlanadi. Yangi yaratilgan darsliklar yangi avlod darsliklari hisoblanadi. Bunda amaldagi ona tili va o'qish darsliklari birlashtirilib, bir fan sifatida o'qitila boshladi. Ona tili va o'qish savodxonligi xalqaro ta'lim sifatiga javob beradigan darslik sifatida yaratildi.

Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilar egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini kundalik hayot bilan bog'lab, o'z hayotlarida qo'llaydilar. Bu esa kompetensiyaviy yondashuv deb ataladi. Ona tili va o'qish savodxonligi ta'limiga kompetensiyaviy yondashuv kasbiy, shaxsiy va jamiyatdagi kundalik hayotda uchraydigan holatlarda samarali harakat qilishga imkon beradigan turli ko'rinishdagi malakalarni o'quvchilar tomonidan egallahni nazarda tutadi. Kompetensiyaviy yondashuv ona tili va o'qish savodxonligi ta'limning asosini amaliy, tadbiqiyo'nalishlarini kuchaytirishga qaratiladi. Ta'lim tizimida boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili va o'qish savodxonligi fanini o'rgatishda integratsion va inkorporatsion materiallar tizimini ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish, fanga bo'lgan qiziqishni o'stirish bilan bir qatorda, Milliy o'quv dasturda belgilangan va ona tili va o'qish savodxonligi faniga doir o'zlashtirilishi shart etib belgilangan, bilim, ko'nikma va malakalarni hayotda qo'llay olishlari muhim hisoblanadi. Milliy o'quv dasturi asosida yaratilgan darsliklar ham aynan shunga qaratilgan. Darslar davomida o'quvchilar turli kasb egasi sifatida tasavvur qilib, shunga doir turli topshiriqlar bajaradilar. Darsliklar bilan birgalikda darslikkha moslashtirilgan mashq daftarlari ham ishlab chiqilgan. Darslikda o'zlashtirilgan mavzular asosida mashq daftardagi topshiriqlarni bajaradilar. 2-sinf ona tili va o'qish savodxonligi 1-qism darsligida "Maktabim direktori bo'lib qolsam..." mavzusi bor. Shu mavzuni o'tish jarayonida har bir o'quvchi o'zini mактаб direktori deb tasavvur qiladilar. Mashq daftarlarida esa quyidagi topshiriqnini yozma bajaradilar: 9-topshiriq. Tasavvur qiling, sizni maktabga direktor qilib tayinlashdi. Xo'sh, endi qanday yo'l tutasiz? Maktabingiz yaxshi bo'lishi uchun nima ishlar qilasiz? Bu haqida tartib bilan yozing. Mashq daftarlarida o'quvchilar mustaqil ravishda topshiriqlarni bajaradilar. Bu topshiriqlarni bajarish davomida o'quvchilar o'zlaridagi direktorlik qobiliyati qay darajada ekanligini bilib oladilar. O'qituvchi o'quvchilarning iqtidor va qobiliyatlarini hisobga olib, ularni turli kasblarga yo'naltiradi.

Milliy o'quv dasturi asosida yaratilgan ona tili va o'qish savodxonligi darsligiga inkorporatsion yondashish orqali o'quvchilarni kasbga yo'naltiriladi. 2-sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsligining 1-qismining 5-bo'limi "Kasbim- faxrim" deb nomlangan. Bu bo'limda to'laqonli o'quvchilarga kasb va hunar haqidagi bilimlar beriladi .

Boshlang'ich sinf o'quvchilari asta-sekin kichik hajmli ertak, hikoya, bolalar uchun yozilgan she'rlarni o'qish jarayonida ularning mazmunini o'zlashtirib, og'zaki nutqda qayta bayon qilishga, odob va axloq masalalariga munosabat bildirishga o'rganadilar. O'quvchilar obrazlarning xatti- harakatlarini kuzatib, ularga tavsif berish malakasini hosil qiladilar.

O‘qituvchining asosiy vazifasi o‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish didaktik, psixologik va metodik tamoyillarga tayanishni taqozo etadi. Chunki, o‘quvchining badiiyatni his qilish holati uning ruhiyati bilan bog‘lansa, badiiy asarni o‘qib o‘rganish jarayonida undan hayotiy xulosalar chiqarish, ma’naviy saboq olishga, ong va hissiyotining ta’lim maqsadiga ko‘ra rivojlanishi didaktika bilan bog‘lanadi; o‘quvchining adabiy tahlil talablarini o‘rganishi, adabiy asarning qurilishi va janriga oid bilimlarni o‘zlashtirib, badiiy ijod qonuniyatlari talablariga mos tarzda bu bilimlarga tayanib amaliy ish yuritishi, ijodiy fikrashi - metodika bilan bog‘lanadi. Maktab adabiy ta’limiga estetik tahlilni olib kirish masalasi hanuz dolzarbligini saqlab turibdi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilar uchun mo‘ljallangan 4-sinf o‘qish darsligida uchta qissa va yigirma ikkita epik turning eng kichik janri bo‘lgan hikoyalar o‘rin olgan. Oybekning “Alisherning yoshligi” hamda, Sarigul Bahodirovaning “To‘maris” qissasi tarixiy mavzuda yozilgan bo‘lib, ajdodlarimizning urf-odat, rasm-rusmlari, milliy qadriyatlari, yashash tarzi, ijtimoiy faoliyatlari haqida boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ma’lumot beradi. “To‘maris” qissasi orqali ajdodlarimizga xos mardlik, jasorat, milliy ruhiyat, vatanparvarlik g‘oyalari badiiy ifodalangan bo‘lsa, “Alisherning onasi” qissasida millatimizga xos mehribonlik, ma’naviy axloq, kitobxonlik kabi insonga xos bo‘lgan ijobiy xususiyatlar estetik ifodasini topgan. Boshlang‘ich sinflarda bu asarlarni tahlil qilish orqali o‘quvchilarda muhim axborot bazasini shakllantirish ko‘zda tutiladi.

Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida hikoyalar juda ahamiyatli va eng ko‘p o‘rganiladigan badiiy janr hisoblanadi. Hikoyalar kichik epik asar bo‘lib, yosh kitobxon uchun mos va qulay. Har bir hikoyani tanishtirish o‘z oldiga nafaqat ta’limiy,ya’ni o‘quvchi yozma va og‘zaki nutqini shakllantirish,balki didaktik,ya’ni tarbiyaviy g‘oya va maqsadlarni belgilab oladi. Shu sababli har bir hikoyani o‘quvchilar tomonidan yuqori darajada tushunishi va o‘zlashtirishi uchu o‘qish darslarini innovatsion metodlarda o‘tish va kichik asarni tahlil qilish ahamiyatli hisoblanadi. Bunday kichik asarlar yangi Milliy o‘quv dasturiga asoslangan darskikdan tashqari DTSga asoslangan 4-sinf darsliklarda ham uchratamiz. 4-sinf o‘qish darsligida “Erkacholning o‘rgi” hikoyasi berilgan bo‘lib, bu hikoya bolalar yozuvchisi Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Jannati odamlar” avtobiografik romanidan olingan. “Jannati odamlar”da yozuvchi o‘z bolalaigi haqida hikoya qiladi. Erkachol esa yozuvchining ona tomonidan bobosi hisoblanadi. “Erkacholning o‘rgi” hikoyasida Xudoyberdi To‘xtaboyev bobosi bilan o‘rik niholini ekishlari va bobosi niholni erkalatib parvarishlaganini eslaydi. Hikoyada “Yaxshidan bog‘ qoladi” g‘oyasi ilgari surilgan. Hikoyada Erkachol parvarishlagan 2ta bog‘ni guvohi bo‘lishimiz mumkin. Birinchisi “Qoradanak” navli, juda shirin va serhosil, shirali o‘rik ko‘chaklari bo‘lsa, ikkinchisi yashirin va majoziy ma’noda muallifning o‘zi va u yaratgan asarlari,qoldirgan buyuk me’rosidir. Erkachol nihollarni ekish bilan chegaralanib qolmagan, ular toki hosilga kirdunga qadar xurjunning ikki ko‘ziga ikki ko‘zani solib suv toshib, sug‘organ va shirin erkalatib parvarishlagan. Bu haqida muallif hikoya so‘ngida aytib, “Xuddi

meni erkalagandek”deb ta’kidlab qo‘yadi. Bu esa ikkinchi bog‘ o‘zi ekanligiga ishoradir.Bilamizki yozuvchi otasidan erta yetim qoladi,20 yoshida beva qolgan onasini esa 3 bolali bir kimsaga turmushga berishadi.Bu 3 bola onasidan yetim qolgan,shunda Erkachol yetimni boshini silash savob deb qizini shu insonga uzatadi.Xudoyberdining tarbiyasi esa bobo va buvisining zimmasiga tushadi,chunki onasi turmush qurgan inson faqir bo‘lib,ham onasi,ham Xudoyberdini ta’minlay olmas edi,chunki o‘zining 3 bolasi ham bor edi.Hikoyada shular haqida ham qisqacha so‘zlab berilgan.Xudoyberdi otasidan erta ajragani va ona mehriga to‘ymay ulg‘ayganini “sutga to‘ymagan qo‘zichoqday” deb tasvirlaydi. “Sutga to‘ymagan qo‘zi onasining orqasidan qolmaganidek, erta-yu kech bobomning ortidan ergashib yurardim. Hatto tunda ham bir o‘rinda yotardik. Yotishim bilan barmoqlarim bilan soqollarini tarab, ertak aytib berasiz deya, qiyin-qistovga olardim.” Erkachol qizining omonatini-yosh niholni ozor bermay,barcha erkaliklari-yu sho‘xliklariga qaramay,kelgusida barchaga foydasi tegadigan komil inson bo‘lib yetishishi uchun sabr bilan tarbiyalaydi. “hosilga kirguniga qadar” erkalab parvarishlaydi. Xudoyberdi yoshligida juda sho‘x bo‘lgan, buni ramandagi hikoya va qissalarida ko‘p ta’kidlagan, hikoyalab bergen. “Erkacholning o‘rigi” hikoyasida ham savoliga javob olish uchun, bobosini eshakning junidan tortish bilan qo‘rqtgani keltirilgan.

— Yo‘q, oldin qanaqaligini ayting, keyin jim ketaman.

Bo‘lmasa eshakning junidan tortaman. Bu bejiz emas,chunki bundan oldin ko‘prik qurish uchun yo‘l olganlarida bobosini eshakni dumini tortish bilan “jazolagan”edi. O‘sanda bobosining beli og‘rib ancha vaqtgacha o‘rnidan turolmay qolgandi.

— Qo‘y, bolam, junidan tortako‘rma, yana yiqitsa, ishimiz bitmay qoladi...

Bobosining shu gapidagi 3 nuqta shunga ishora.

Erkachol zaxmat chekib, tepalikda qurgan o‘rik nihollarini hosilga kirguncha parvarishlaydi. Uning mevasidan esa butun qishloq haligacha bahramand bo‘lib haqiga duo qiladi, hattoki “Qoradanak”navi nomining o‘rniga “Erkacholning o‘rigidan” deb atashgan. Xudoyberdini ham shunday tarbiyalab parvarishladiki, hozir yozuvchining asarlarini sevib mutoala qilmaydigan kitobxon bo‘lmasa kerak. Xudoyberdi ayniqlsa bolalarga mehri o‘zgacha bo‘lib,ularni ma’naviy “sug‘orish” uchun umr bo‘yi tinim bilmay ijod qildi. Bunday asarlar orqali o‘quvchida ham og‘zaki nutqi hamda uning fikrlash doirasi o‘sishi yaqqol ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘ladi.

Foydalaniman adabiyotlar

1. Ahmadovich H. H. et al. O ‘QUVCHILARNING BILUV FAOLLIGINI OSHIRISHGA QARATILGAN DARS DAN TASHQARI ISHLAR VA ULARNI TASHKIL ETISH METODIKASI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 343-345.

2. Ahtamovich H. H., Shixnazarovna J. A. O ‘QUVCHILAR O ‘ZLASHTIRISH DARAJALARINI TASHHISLASH //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 306-309.
3. Ahmadovich H. H., Aminovna A. S. BOSHLANG ‘ICH SINF O ‘QISH DARSLARIDA DIDAKTIK O ‘YIN VA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 100-102.
4. Ahmadovich H. H., Amrulloevna S. D. RUNN BITIKLARI AXLOQ VA VATANPARVARLIKNING YUksak NAMUNASI SIFATIDA //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 248-250.
5. Ahmadovich K. H., Bahriiddinovna S. G. Development and practical application of acmeological technologies of student assessment diagnose //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2022. – Т. 11. – №. 6. – С. 141-145.
6. Адизова Нигора Бахтиёровна. Оқсоқол Бува, Бола ба Хон Образлари Қизиқмачоқлар Талқинида. Journal of innovations in social sciencesjournal of innovations in social sciences. 02 Issue: 01 | 2022.
7. Adizova Nigora Bakhtiyorovna. The Arrival of Great, Child and Khan Images in Interesting. European journal of life safety and stability (ejlss). Www.ejlss.indexedresearch.org Volume 14, 2022 |
8. Nigora Adizova Baxtiyorovna. 3-4-sinf ona tili darslarida qo'llanadigan tayanch kompetensiylar. Journal of Advanced Research and Stability. Volume: 02 Issue: 01 | 2022
9. AB Rakhmonovich, AN Bakhtiyorovna. THE MAIN MOTIVES AND TASKS OF CHILDREN’S FOLKLORE. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL)
- 10.Нигора Бахтиёровна Адизова, Ҳилола Худойбердиева. ҚИЗИҚМАЧОҚЛАРДА ОҚСОҚОЛ ВА ХОН ОБРАЗЛАРИ. Scientific progress
- 11.Nigora Baxtiyorovna Adizova. Boshlang’ich sinf o ‘quvchilari nutqini o‘stirishda mustaqil ishlarning o ‘rni va ahamiyati. Scientific progress
- 12.Jumayev, Ruzokul. "Sadriddin Ayniy asarlaridagi joy nomlarining tahlili." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 23.23 (2022).
- 13.Jumayev, Ruzokul. "САДРИДДИН АЙНИЙ АСАРЛАРИДАГИ АРАБЧА ТОПОНИМЛЯР." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 23.23 (2022).
- 14.Xoliquovich J. R. SADRIDDIN AYNIYNING “ESDALIKLAR” ASARIDA ANTROPONIMLARNING LEKSIK QATLAMLARI: Jumayev Ruzokul Xoliquovich Buxoro davlat universiteti katta o ‘qituvchisi //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 3. – С. 34-37..
- 15.Xoliquovich, Jumayev Ruzokul. "Using anthropometric units in" Esdaliklar" by Sadriddin Ayniy." European Journal Of Innovation In Nonformal Education 2.2 (2022): 295-298.

- 16.Jumayev, Ruzokul. "SADRIDDIN AYNIYNING "ESDALIKLAR" ASARIDA OYKONIM TURLARINING QO 'LLANISHI." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 7.7 (2021).
- 17.Jumayev, Ruzokul. "САДРИДДИН АЙНИЙНИНГ ОДИНА ҚИССАСИДА НОМ ҚҮЙИШ САНЪАТИ." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 2.2 (2021).
- 18.Xoliquovich, Jumayev Ruzokul. "Influence of Sadriddin Aini life and works in spiritual and moral development of students." Middle European Scientific Bulletin 11 (2021).
- 19.Jumayev, Ruzokul. "Joy nomlarining tarkibiy tahlil usullari." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 2.2 (2020).
- 20.Jumayev R. SADRIDDIN AYNIY ASARLARIDA AGORONIMLARNING LEKSIK TAHLILI // ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 27. – №. 27.
- 21.Jumayev R. SADRIDDIN AYNIY ASARLARIDA TOPONIMLARDAN STILISTIK MAQSADLARDA FOYDALANISH // ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 27. – №. 27.
- 22.Jumayev R. САДРИДДИН АЙНИЙ АСАРЛАРИДАГИ АДАБИЙ (БАДИЙ) ТОПОНИМЛАР // ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 27. – №. 27.